

INSONNING TABIATGA EKOLOGIK TA'SIRI VA MUOMMOLARI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA

UNIVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI

BIOLOGIYA YO'NALISHI 4-KURS TALABASI

ALIYEV XUDOYBERDI

Annotatsiya: ushbu maqola insonning tabiatga qilayotgan beayov ta'siri, uning natijasida yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlari va sayyoramizni borgan sari jarlikka yetaklab borayotganimizdan darak beradi. Bu muommolaning sababchisi bizning ochko'zligimizdir. O'z manfaatimiz yo'lida o'zimiz yashab turgan tabiatni yo'q qilayotganimiz va bu manfaat yo'lida hech qaytmasligimiz dolzarb masaladir. Biz tabiatni saqlab qolish uchun chiqindisiz texnologiyalar, yashil maskanlar, yuqori darajadagi qo'rqxonalar, milliy bog'lar, yo'qolib borayotgan hayvon, o'simliklarni ko'paytiradigan laboratoriyalar tashkil qilish kerak.

Аннотация: В данной статье показано негативное влияние человека на природу, возникающие в результате негативные последствия и то, что мы ведем нашу планету к пропасти. Причина этой проблемы — наш голод. Насущным вопросом является то, что мы любим природу, в которой живем, для собственной выгоды и никогда не возвращаемся за этой пользой. Чтобы сохранить природу, нам необходимо создать безотходные технологии, зеленые насаждения, заповедники, национальные парки, лаборатории по разведению животных и растений.

Annotation: this article shows the ruthless influence of man on nature, the negative consequences that arise as a result of it, and the fact that we are leading our planet to the abyss more and more. The cause of this problem is our hunger. It is an urgent issue that we love the nature we live in for our own benefit and never return for

this benefit .In ,order to nature ,we need establish zero-waste technologies green habitats , high –level nature reserves , national parks and laboratories for breeding endangered animals and plants.

Kalit so'z:Ekologiya, ifloslanish, global isish, atmosfera muhofazasi, suv resurslari, biologik xilma-xillik, o'rmonlarni muhofaza qilish, ekologik barqarorlik.

Ключевые слова:Экология, загрязнение, глобальное потепление, охрана атмосферы, водные ресурсы, биологическое разнообразие, охрана лесов, экологическая устойчивость.

Keyword:Ecology, pollution, global warming, atmospheric protection, water resources, biodiversity, forest conservation, environmental sustainability.

Insonning tabiatga ta'sir etishi odam paydo bo'lgan davrlardan boshlangan .Lekin kishilik jamiyatida rivojlanishning ilk davrlarida insonlar ovchilik , baliq tutish bilan kun kechirganlarida ular tashqi muhit bilan omillari chambarchas bog'langan.Insonning tabiatga ta'siri uncha sezilmagan .Afsuski borgan sari chorvachilik, dehqonchilik kabi sohalarning paydo bo'lishi, mollarning yaylovlarda muntazam boqilishi natijasida o'simlik qatlamining qirilib ,yovvoyi hayvonlar och qolishiga sabab bo'ldi .Asta –sekin inson ongining o'sib borishi , fan -texnikaning rivojlanishi oqibatida insonlar tabiatdan o'ylamay foydalanishga kirishdi. Borgan sari insonlar tabiat qonunlarini buzib o'z manfaatlari yo'lida biosferani halok qilmoqda .Hozirgi kunda eng dolzarb muommolar suv va atmosfera havosining ifloslanishi , tuproq erroziyasi, o'simlik va hayvon turlarining qirilib ketishidir.

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi tabiatga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoatning o'sishi, urbanizatsiya, qishloq xo'jaligi va transport tizimining kengayishi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Atmosferaning ifloslanishi, global isish, o'rmonlarning kesilishi va suv resurslarining kamayishi insonning tabiatga bo'lgan ta'sirining salbiy oqibatlaridandir. Ushbu maqolada inson

faoliyatining tabiatga ekologik ta'siri va bu muammolarni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

1. Inson faoliyatining asosiy ekologik ta'sirlari
2. Atmosferaning ifloslanishi

Sanoat korxonalari va transport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar atmosferaning ifloslanishiga olib kelmoqda. Bu quyidagi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Global isish – issiqxona gazlari (karbonat angidrid, metan, azot oksidi) Yerning haroratini oshiradi.

Kislotali yomg'irlar – atmosfera ifloslanishi natijasida yomg'ir tarkibida zararli kimyoviy moddalar paydo bo'lib, tuproq va suv resurslariga zarar yetkazadi.

Sog'liq muammolari – havoning ifloslanishi nafas yo'llari kasalliklarini keltirib chiqaradi.

3.Suv resurslarining ifloslanishi

Sanoat chiqindilari – zavod va fabrikalardan chiqadigan kimyoviy moddalar daryolar va ko'llarni ifloslantiradi.

Qishloq xo'jaligi pestitsidlari va o'g'itlari – yer osti suvlariga tushib, ichimlik suvi sifatini pasaytiradi.

Plastik va maishiy chiqindilar – okean va daryolarni ifloslantirib, suv hayvonlari hayotiga tahdid soladi.

4. O'rmonlarning kesilishi va tuproq degradatsiyasi

O'rmonlarning yo'q qilinishi – tabiiy muhitning buzilishiga va biologik xilmaxillikning kamayishiga olib keladi.

Eroziya va cho'llanish – tuproq unumdorligining pasayishiga sabab bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsuldorligini kamaytiradi.

Tabiiy yashash muhitining yo'qolishi – yovvoyi hayvonlarning soni kamayib, ba'zi turlar yo'qolib ketmoqda.

Brakonerlik va noqonuniy ov – hayvonlarning tabiiy populyatsiyasiga zarar yetkazmoqda.

Tabiatda eng ko'p va suyuq holda uchraydigan kimyoviy modda suvdur. Lekin suv manbasining boy bo'lishiga qaramasdan uy –ro'zg'or , sanoat chiqindilari, turli xil suv texnikalaridan ajraladigan kimyoviy moddalar , oqava suvlar suvni zaharlab ifloslantirmoqda. Yer yuzida umumiy suv miqdori 1405mln km³ tashkil qiladi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 200mln gektar yerlarni sug'orish uchun yiliga yer osti manbalaridan va daryolardan 2800km³ suv olinmoqda .Bu esa daryo suvlarining 7%ni tashkil etadi. Sug'orish uchun olingan suvning 80% yoki 2300km³ suv ishlatilsa ,uning 20%yoki 470-480km³ suv daryo va ko'llarga oqava suv sifatida chiqarib yuboriladi. Respublikamizda yillik suv sarfi 62-65km³ bo'lib shuning 25km³ Amudaryodan 11km³ Sirdaryodan qolgan qismi daryolardan va yer osti suv manbalaridan olinadi .Yildan yilga suv ishlatish sarfi oshib bormoqda , bu esa suv manbasining kamayib borayotganidan darak beradi. Chiqindi suvlar bilan insonni ichimlik suvi bilan ta'minlashda yaroqsiz hisoblanadi. Chunki zaharli moddalar bilan to'yingan suv inson salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Turli xil yuqumli kasalliklar keltirib chiqaradi. Keyingi paytlarda polimelit , sariq va sil kasalliklari mikroblarning suv orqali tarqalishini aniqlandi. Shuning uchun suvga chindilar tashlashda va uni ishlatishda bir o'ylab ko'raylik u bizga qanchalar muhim, suv bo'lmasa yashay olmasligimizni bir o'ylang. Maishiy chiqindilarni to'plash ,qayta ishlash va utilizatsiya qilish masalasi ham oldimizda turgan eng og'ir muammodir. Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarining paydo bo'lishi insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish natijasidir. Rivojlangan mamlakatlarda zaharli chiqindilar miqdori yiliga bir kishi uchun taxminan 70kg ni tashkil etib, 1tonna shunday chiqindini yo'q qilishda

oʻrtacha 500dollar sarflanadi. Chiqindisiz texnologiya yaratish uchun bir korxona chiqindilarini ikkinchi korxona tomonidan xom ashyo sifatida foydalanishni taʼminlash yaʼni barcha turdagi chiqindilarni qayta ishlashda foydalanish, xom ashyo chiqindilaridan foydalanishni taʼminlovchi turli ishlab chiqarish korxonalarini bir yerga turlash, turli korxonalarning territorial kompleksni tashkil qilish, ishlab chiqarishni ekologiyazatsiyalash yaʼni xom ashyoga maxsus ishlov berish yoʻli bilan tozalash, keyin foydalanish natijasida hosil boʻlgan chiqindilar turlari va miqdorini kamaytirish.



Yerda odamning paydo boʻlishi organik dunyo bilan tabiiy muhit oʻrtasidagi oʻzaro munosabatni tubdan oʻzgartirib yubordi. Inson tabiatga mehnat qurollari vositasida yaylovlardan notoʻgʻri foydalanish oqibatida taʼsir koʻrsatadi. U oʻzining tabiat bilan boʻlgan oʻzaro taʼsiri usullarini takomillashtirib boradi. Natijada inson yashay oladigan hudud kengayadi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortadi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, koʻlam jihatidan ham koʻpayadi. Inson oʻzi yashashi va faoliyat koʻrsatishi uchun tabiiy muhitdan tashqari yana sunʼiy muhitni ham bunyod etadi.

Xulosa:Inson faoliyatining ekologik ta'siri yer sharining barcha ekotizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Atmosferaning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, o'rmonlarning yo'q qilinishi va hayvonlar dunyosining yo'qolib borishi global ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun ekologik ongni rivojlantirish, barqaror rivojlanish strategiyalarini joriy etish va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish zarur. Kelajak avlodlarga sog'lom va toza muhit qoldirish uchun har bir inson tabiatni asrashga o'z hissasini qo'shishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC) – Climate Change and Human Impact.
2. United Nations Environment Programme (UNEP) – Global Environmental Outlook Reports.
3. Berdikulov Khudoyshukur Keldiyorovich, Negmatova Surayyo Teshaevna, Normat Durdiev Khasanovich, & Artikova Lola Soatovna. (2024). THE SIGNIFICANCE OF BIOSTIMULATORS IN NON-TRADITIONAL CROP GROWING. The Bioscan, 19(Special Issue1), 356–360. [https://doi.org/10.63001/tbs.2024.v19.i02.S.I\(1\).pp356-360](https://doi.org/10.63001/tbs.2024.v19.i02.S.I(1).pp356-360)
4. Keldiyorovich, B. K. (2024). THE EFFECT OF STIMULANTS ON CROTALARIA HAY YIELD AND QUALITY INDICATORS. Cotton Science, 4(1).
5. Бердикулов, Х. К., Ортикова, Л. С., & Негматова, С. Т. (2024). КРОТАЛАРИЯ КЎК МАССА ҲОСИЛИГА БИОСТИМУЛЯТОРЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. Science and innovation, 3(Special Issue 21), 93-97
6. Keldiyorovich, B. X. (2023). Species of the Genus Crotalaria L. and Their Biological Significance. Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences, 1(4), 1-7

7. Keldiyorovich, B. K., & Khushnazarova, N. D. BIOLOGY ECOLOGY AND ECONOMIC IMPORTANCE OF CROTALARIA JUNCEA.

8. Keldiyorovich, B. X., & Khushnazarova, N. D. (2023). BIOGEN STIMULATORS DESCRIPTION AND CLASSIFICATION, TECHNOLOGY